



Energetika sohasida kasbiy malakalarni
rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashi

Neft va gaz sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Neft va gaz sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-028



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasining Milliy malaka ramkasi hamda Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, neft va gaz sohasi bo'yicha malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi. Mazkur tarmoq malaka ramkasi soha mutaxassislarining malaka darajalarini yagona yondashuv asosida tasniflaydi, shuningdek, kasbiy standartlarni ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi — Neft va gaz tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini shakllantirish, tarmoqning strategik rivojlanish ustuvorliklarini inobatga olgan holda, Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yiladigan yagona talablarni belgilashdan iborat.

Shuningdek, tarmoq malaka ramkasi tarmoqlararo kompetensiyalarni hamda turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini hisobga olgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashni ta'minlaydi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy vazifasi — neft va gazni qidirish va razvedka qilish, qazib olish, tayyorlash (separatsiya, tozalash), qayta ishlash, saqlash, tashish (quvurlar, temir yo'l/avto va boshqa logistika tizimlari), taqsimlash hamda iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq kompleks faoliyat turlarini qamrab olgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun, zamonaviy va istiqbolli texnologiyalarni inobatga olgan holda, ishchilarning va mutaxassislarning funksional harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari hamda bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malakalar ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi “Elektr energetikasi to'g'risida”gi O'RQ-939-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori;

AJ – aksiyadorlik jamiyati;

MCHJ – mas‘uliyati cheklangan jamiyat;

GQIZ – gazni qayta ishlash zavodi;

NQIZ – neftni qayta ishlash zavodi;

GKM – gaz-kimyo majmuasi (GKM)

QK – qo‘shma korxona

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Neft va gaz sohasi — uglevodorod resurslarini (neft, tabiiy gaz, gaz kondensati) qidirish va razvedka qilish, qazib olish, tayyorlash, qayta ishlash (mahsulot ishlab chiqarish), saqlash, tashish hamda iste'molchilarga yetkazib berish jarayonlarini qamrab oluvchi, yuqori texnologiyali va xavf darajasi yuqori bo'lgan strategik tarmoqdir.

Mazkur soha geologiya-qidiruv va burg'ilash ishlari, konlarni o'zlashtirish va ekspluatatsiya qilish, neft-gazni separatsiya va quritish, gazni tozalash va kompressorlash, neftni dastlabki tayyorlash, neftni qayta ishlash, gazni qayta ishlash, neft va gazni qayta ishlash mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va tarqatish, suyultirilgan gaz bilan bog'liq jarayonlar, magistral va taqsimlovchi quvur tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish, o'lchash-aniqlash (metering), laboratoriya nazorati, energiyani va resurslarni tejamkor boshqarish, shuningdek sanoat xavfsizligi, mehnat muhofazasi va ekologik xavfsizlik talablarini ta'minlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Neft va gaz sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, sanoat tarmoqlarini xomashyo va yoqilg'i bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, energiya xavfsizligini mustahkamlash hamda transport, kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari sanoati va uy-joy kommunal xo'jaligi ehtiyojlarini qondirishda strategik ahamiyatga ega.

Ushbu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar qatoriga geologlar va geofiziklar, burg'ilash ustalari va operatorlari, kon operatorlari, neft-gazni tayyorlash qurilmalari operatorlari, kompressor stansiyasi operatorlari, quvur liniyalari ekspluatatsiyasi bo'yicha mutaxassislar, texnologik jarayonlar muhandislari va operatorlari, neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va tarqatish (quyish-to'kish) operatorlari, mashinistlar, elektr ta'minoti, avtomatika va asbob-uskunalar mutaxassislari, payvandlash va montaj ishlari ustalari, laboratoriya va sifat nazorati mutaxassislari, sanoat xavfsizligi va ekologiya bo'yicha mutaxassislar, shuningdek raqamli monitoring va kiberxavfsizlik yo'nalishidagi ekspertlar hamda boshqa muhandis-texnik xodimlar va operatorlar kiradi.

Neft va gaz sohasi xalqaro standartlar hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilib, sanoat xavfsizligi, ekologik barqarorlik, texnologik intizom, avariya holatlarning oldini olish va resurslardan samarali foydalanish tamoyillariga tayangan holda rivojlantiriladi.

Neft va gaz sohasi bo'yicha tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

B – seksiya Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat.

D – seksiya Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash

H – seksia Tashish va saqlash

O'zbekiston Respublikasida Neft va gaz sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	B – seksiya Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.	06 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	06.1 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	06.10 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	06.10.0 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish
			06.2 Tabiiy gaz qazib olish	06.20 Tabiiy gaz qazib olish	06.20.0 Tabiiy gaz qazib olish
		09 Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	09.1 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar	09.10 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar	09.10.0 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar
2.	C – seksiya Ishlab chiqaradigan sanoat	19 Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	19.2 Neftni qayta ishlash mahsulotlari va yoqilg'i-energetika foydali qazilmalarini ishlab chiqarish	19.20 Neftni qayta ishlash mahsulotlari va yoqilg'i-energetika foydali qazilmalarini ishlab chiqarish	19.20.0 Neftni qayta ishlash mahsulotlari va yoqilg'i-energetika foydali qazilmalarini ishlab chiqarish
3.	D – seksiya Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	35 Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	35.2 Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash	35.20 Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash	35.20.0 Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash
				35.21 Gaz ishlab chiqarish	35.21.0 Gaz ishlab chiqarish
				35.22 Gaz bilan ta'minlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash	35.22.0 Gaz bilan ta'minlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash
				35.23 Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish	35.23.0 Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish
				35.24 Gaz ta'minoti tizimlari doirasida gazni saqlash	35.24.0 Gaz ta'minoti tizimlari doirasida gazni saqlash

4	H – seksia Tashish va saqlash	49 Quruqlik va quvur transporti	49.5 Quvurlar orqali yuk tashish	49.50 Quvurlar orqali yuk tashish	49.50.0 Quvurlar orqali yuk tashish
---	-------------------------------------	---------------------------------------	--	---	---

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13212	Energiya ta'minoti sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
2.	13220	Konchilik, qazib olish sanoatida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari boshliqlari
3.	21130	Kimyogarlar
4.	21141	Geologlar
5.	21452	Neft-gaz va neft-kimyo sanoati kimyogar muhandislari
6.	21464	Neft va gazni qazib olish bo'yicha muhandislar
7.	21466	Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhandislar
8.	21467	Neft-gazni saqlash va tashish bo'yicha muhandislar
9.	21469	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konchilik muhandislari, metallurklar va turdosh soha professional-mutaxassislari, b.g.k.
10.	31119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan kimyo va fizika fanlari sohasida texniklar, b.g.k.
11.	31162	Neft-gaz va neft-kimyo sanoati texniklari
12.	31172	Geologiya sohasidagi texniklar
13.	31175	Neft-gaz sohasidagi texniklar
14.	31176	Neft va gazni saqlash hamda tashish sohasidagi texniklar
15.	31211	Tog'-kon sanoati brigadirlari
16.	31310	Elektr energiyani ishlab chiqarish qurilmalari operatorlari
17.	31330	Kimyoviy xomashyoni qayta ishlash jarayonlari bo'yicha nazoratchilar
18.	31340	Neft-gazni tozalash va qayta ishlash qurilmalari operatorlari
19.	43222	Ishlab chiqarish, sanoat, energetika sohasi (ishlab chiqarishni rejalashtirish) bilan shug'ullanadigan dispetcherlar
20.	52450	Yoqilg'i quyish shoxobchasi sotuvchisi
21.	71261	Gaz tizimlari va uskunalari ishchilari
22.	72121	Payvandlovchilar
23.	72149	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan konstruksion material tayyorlovchilar va montaj qiluvchilar, b.g.k.
24.	72333	Sanoat va texnologik uskunalarni sozlash va ta'mirlash
25.	74121	Elektromontyorlar (umumiy yo'nalish)
26.	74129	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyorlar va elektromexaniklar, b.g.k.
27.	75439	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan nazoratchilar, b.g.k.
28.	75490	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan malakali sanoat ishchilari va turdosh kasblar ishchilari, b.g.k.
29.	81131	Neft va gaz quduqlarini burg'ilovchilar va turdosh kasblar ishchilari

30.	81319	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan kimyoviy xomashyoni, neft va neft mahsulotlarini, boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlarni qayta ishlash zavodlariga xizmat ko'rsatuvchi operatorlar, apparatchilar va turdosh kasb ishchilari, b.g.k.
31.	81829	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan bug' dvigatellari va qozonxonalarning operatorlari, b.g.k.
32.	81890	Boshqa boshlang'ich guruhlariga kiritilmagan sanoat qurilmalari va dastgohlari operatorlari, b.g.k.
33.	96231	Savdo avtomatlari va hisoblagich ko'rsatkichlarini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi ishchilar

3. Tarmoq tahlili

“O‘zbekneftgaz” AJ — zamonaviy ko‘p darajali vertikal integratsiyalashgan kompaniya bo‘lib, u 50 dan ortiq korxonani, jumladan 13 ta qo‘shma korxona hamda 10 ta asosiy korxonani birlashtiradi¹.

“O‘zbekneftgaz” AJ O‘zbekiston neft-gaz tarmog‘ining milliy operatori hisoblanadi. Kompaniyaning asosiy faoliyati uglevodorodlarni qidirish va qazib olish, qayta ishlash, neft mahsulotlari hamda gaz-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni qamrab oladi. Kompaniya vertikal zanjir (qazib olish — qayta ishlash — petrokimyo — marketing/taqsimot) bo‘yicha faoliyat yuritadi.

“O‘zbekneftgaz” AJ tarkibiga uglevodorodlarni qazib olish bo‘linmalari, gazni qayta ishlash va neftni qayta ishlash korxonalari, neft bazalari, ilmiy-tadqiqot hamda loyihalash tashkilotlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha o‘quv infratuzilmasi kiradi.

Hozirgi kunda “O‘zbekneftgaz” AJ mamlakat gaz ishlab chiqarishining salkam 60 foizini ta‘minlovchi yirik tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi².

2025-yil yakunlariga ko‘ra, kompaniya korxonalari tomonidan 25,2 mlrd kub metr tabiiy gaz ishlab chiqarilgan³.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, Milliy statistika qo‘mitasining dastlabki ma‘lumotlariga muvofiq, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida O‘zbekiston YAIM joriy narxlarda 1 849,7 trln so‘mni tashkil etgan (real o‘shish sur‘ati — 7,7 foiz)⁴.

Kompaniyaning moliyaviy natijalaridan kelib chiqib oxirgi 12 oy (2025-yil) davri bo‘yicha umumiy tushum 34 567 mlrd so‘m miqdorida qayd etilgan.

Kompaniya o‘z faoliyati doirasida 130 ta uglevodorod koni (depoziti)ni yuritadi; ushbu ko‘rsatkich respublikadagi uglevodorod konlarining umumiy soniga nisbatan 42 foizni tashkil etishi ko‘rsatilgan. Kompaniyada 32 000 dan ortiq xodim mehnat qiladi. Qayta ishlash va ishlab chiqarish platformasi bo‘yicha umumiy quvvat taxminan 6,7 mln tonnani tashkil etadi⁵.

¹ <https://interfax.com/newsroom/top-stories/115175/?utm>

² <https://webdev.ung.uz/media/allfiles/files/f4af3c388f554abea7fe83dc8989b221.pdf>

³ <https://president.uz/en/lists/view/8896?utm>

⁴ <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66554-2025-jilda-zbekiston-yalpi-ichki-ma-suloti-azhmi-7-7-foizga-sdi-2?utm>

⁵ <https://webdev.ung.uz/media/allfiles/files/f4af3c388f554abea7fe83dc8989b221.pdf>

Tashkiliy tuzilma. “O‘zbekneftgaz” AJ uglevodorodlarni qazib olish bo‘yicha 5 ta boshqarma — Muborak, Sho‘rtan, Ustyurt, Gazli va Vodiy boshqarmalari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu tizim doirasida 1 ta gazni qayta ishlash zavodi — Muborak GQIZ va 1 ta neftni qayta ishlash zavodi — Buxoro NQIZ hamda 2 ta yirik gaz-kimyo majmuasi — Sho‘rtan GKM va Ustyurt gaz-kimyo majmuasi va Uzbekistan GTL zavodi faoliyat yuritadi.

Neft mahsulotlarini saqlash va realizatsiya qilish infratuzilmasi sifatida mahsulotlar 14 ta neft bazasida saqlanadi va mamlakat bo‘ylab joylashgan 47 ta filial orqali realizatsiya qilinadi.

Kompaniya tarixidagi muhim sanoat loyihalari qatoridan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (1997-yil), Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi (2001-yil), Ustyurt gaz-kimyo majmuasi (2016-yil) hamda Uzbekistan GTL loyihasi (2022-yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish boshlangan) o‘rin oladi.

Korporativ moliya va xalqaro baholash amaliyoti. Kompaniya miqyosida 2020-yili Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari asosida hisobot yuritish amaliyoti joriy etildi. Ernst & Young tomonidan 2017–2020-yillar moliyaviy hisobotlari hamda 2021-yil birinchi yarim yilligi uchun hisobotlar bo‘yicha mustaqil tashqi audit o‘tkazilgan.

2021-yili “O‘zbekneftgaz” AJ Fitch va S&P Global Ratings xalqaro reyting agentliklari tomonidan BB- darajasida (prognozi — barqaror) korporativ kredit reytingiga ega bo‘lgan.

Shuningdek, “O‘zbekneftgaz” AJning xalqaro kapital bozoriga chiqishi doirasida 2021-yil noyabr oyida London fond birjasida 700 mln AQSH dollari miqdoridagi 7 yillik yevrobondlarning ilk emissiyasi joylashtirilgan (kupon — 4,75%, muddat — 2028-yil noyabrgacha).

Uzbekistan GTL bo‘yicha ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. 2022-yili “Uzbekistan GTL” zavodida sintetik mahsulotlar ishlab chiqarish boshlangan: xususan, 2022-yil iyun oyida sintetik yog‘ (sintetik mahsulot)ning ilk partiyasi haqida xabar berilgan.

Shuningdek, 2022-yil 2-iyul sanasida 10 tonna miqdoridagi sintetik dizel yoqilg‘isining ilk partiyasi jo‘natilgan.

2023-yili sentyabr oyidan sintetik dizel yoqilg‘isini eksport qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan (Yevropa yo‘nalishiga ilk eksport partiyasi 2023-yil 11-sentyabrda yuklangani qayd etilgan).

Kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi. Kompaniya tizimida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi quyidagi 4 ta ta’lim muassasasi faoliyat yuritadi:

I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent shahridagi filiali;

Buxoro neft va gaz sanoati texnikumi;

Farg‘ona neft va gaz sanoati texnikumi;

“UNG training” MCHJ.

Yosh mutaxassislarni tayyorlash Gubkin universiteti Toshkent filiali, Toshkent shahridagi INHA universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-

texnologiya instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va boshqa texnologik oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Buxoro va Farg'ona neft va gaz sanoati kollejlari hamda "UNG training" MCHJ yagona ta'lim markazida sanoat korxonalari uchun o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanadi.

Rahbar xodimlar malakasi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, "UNG training" MCHJ yagona ta'lim markazi, O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi huzuridagi "Kontexnazorat o'quv" DUK va boshqa malaka oshirish muassasalarida muntazam ravishda oshirib boriladi.

"UNG training" MCHJni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, uning faoliyatini muvofiqlashtirish va ta'lim klasterini rivojlantirish maqsadida "Uzbekneftgaz" AJ tomonidan 2022-yil 16-noyabr kuni 91-sonli boshqaruv qarori qabul qilingan. Mahsulot va xizmatlar

Jamiyatning neft va gaz qazib oluvchi va gazni qayta ishlash korxonalari tomonidan tabiiy gaz, gaz kondensati va neft qazib olinadi, suyultirilgan gaz, neft mahsulotlari, sintetik yoqilg'i, polietilen va oltingugurt ishlab chiqariladi.

Jami qazib olingan gazning taxminan 20,8 mlrd kub metri (71,2 foizi) Muborak va Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalari hissasiga to'g'ri keladi.

Eng yirik konlardan – Sho'rtan, Alan, Janubiy Kemachi, Somantepa, Zevarda, Sharqiy va Shimoliy Berdaq hissasiga jami qazib chiqariladigan gazning 50 foizi to'g'ri keladi.

Qazib olingan tabiiy gaz tozalangandan va quritilgandan keyin "UzGasTrade" AJ, "Hududgazta'minot" AJ va "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ QKga sotiladi (realizasiya qilinadi).

Tabiiy gaz va nobarqaror gaz kondensatini qayta ishlash jarayonida olinadigan suyultirilgan gaz birja savdolari orqali yoqilg'i quyish shoxobchalariga realizatsiya qilinadi, aholi va ijtimoiy obyektlarni ta'minlash uchun "Hududgazta'minot" AJ korxonalariga yetkazib beriladi, Jamiyat tarkibidagi korxonalarning avtotransport vositalari ehtiyojlari uchun foydalaniladi va eksport qilinadi.

Neft va gaz kondensati "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJda qayta ishlash orqali neft mahsulotlarini ishlab chiqariladi va NQIZ tomonidan birja savdolari orqali sotiladi (realizasiya qilinadi). Gaz kondensatining bir qismi "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ XKga sotilib, keyinchalik Ustyurt gaz-kimyo majmuasida qayta ishlanadi.

Oltin-gugurt respublika korxonalariga birja savdolari orqali realizatsiya qilinadi hamda eksport qilinadi.

Shu bilan birga, Kompaniya tarkibidagi neft va gaz qazib olish boshqarmalari va gazni qayta ishlash zavodi tomonidan respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga tabiiy gaz va uglevodorodlarni tayyorlash, qayta ishlash, tabiiy gaz va gaz kondensatini tashish hamda suyultirilgan gaz, oltin-gugurtni saqlash xizmatlari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, 2022-yilning II choragida “Shoʻrtan GKM tozalangan metan gazi negizida sintetik mahsulot ishlab chiqarish loyihasi” toʻliq yakunlanib, GTL zavodi ishga tushirildi va 2022-yilning iyul oyidan mahsulot ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Gazni chuqur qayta ishlashdan sintetik dizel yoqilgʻisi, sintetik kerosin, sintetik nafta va sintetik suyultirilgan gaz ishlab chiqarish evaziga respublikada neft-gaz mahsulotlariga boʻlgan talabni qondirish bilan birga, Jamiyatning eksport salohiyatini oshirishga ham zamin yaratildi.

Rivojlanishning asosiy yoʻnalishlari. Jamiyat tomonidan 2026-yilga qadar erishilishi moʻljallangan quyidagi strategik maqsadlar belgilab olingan:

uglevodorodlar zaxirasining oʻsishi hajmi ularni qazib olish hajmidan oshishini taʼminlaydigan darajada zaxiralarni jadal rivojlantirish va qayta tiklashga oʻtish

ilgʻor texnologiyalarga ega boʻlgan keng doiradagi xorijiy neftgaz kompaniyalarini jalb qilgan holda ichki bozor ehtiyojini toʻliq qondiradigan darajada uglevodorodlarni qazib olishni taʼminlash

uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlash natijasida olinadigan yuqori qoʻshilgan qiymatli, talab yuqori boʻlgan va raqobatbardosh mahsulotlar bilan bozorni taʼminlash

shaffoflik va daromadlilik tamoyillari hamda biznesni amalga oshirishning xalqaro korporativ boshqaruv standartlari asosida shakllangan mutlaqo yangi, vertikal integratsiyalashgan neftgaz kompaniyasiga toʻliq transformatsiya qilish;

moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida “katta toʻrtlik” (“Big Four”) auditorlik tashkilotlari vakillari tomonidan mustaqil auditdan oʻtkazilgan Jamiyatning moliyaviy hisobotlarini muntazam ravishda va oʻz vaqtida chop etib (eʼlon qilib) borish.

Neft va gaz sanoati uchun malakali kadrlar tayyorlash sohani rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Yuqori darajada rivojlangan neft va gaz sanoatiga ega boʻlgan rivojlangan mamlakatlar mutaxassislar tayyorlashning ilgʻor usul va strategiyalarini qoʻllab, zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga, taʼlim muassasalarining sanoat korxonalari bilan yaqin hamkorligiga eʼtibor qaratmoqda

Hamkorlik samaradorligini oshirishga sohaning yetakchi mutaxassislaridan iborat tarmoq kengashlari tomonidan ishlab chiqiladigan kasbiy standartlar va tarmoq tarif-malaka maʼlumotnomasi asosida taʼlim muassasalarini oʻqitish dasturlarini ishlab chiqish orqali erishiladi. Kadrlar tayyorlash va talabalarni qabul qilish sanoat korxonasining uzoq muddatli ehtiyoji va tarmoqni rivojlantirish dasturlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida taʼkidlangan taʼlim muassasalari zamonaviy taʼlim dasturlari va ilgʻor xorijiy tajriba asosida neft-gaz sohasi uchun malakali mutahassislarni tayyorlash bilan bir qatorda, tarmoqda ishlovchi xodimlar malakasini oshirish orqali kadr (personal) salohiyatini oshirishni taʼminlamokda

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati.

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi.

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari (Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari, boshqaruv raisi o'rinbosari)
2.	11200012	Filial direktori (boshlig'i) va o'rinbosarlari
3.	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
4.	11200049	Zavod, korxona direktori va o'rinbosarlari (Boshqarma direktori va o'rinbosari)
5.	12230002	Bosh ilmiy xodim
6.	13211012	Bosh mexanik
7.	13211026	Ishlab chiqarish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
8.	13211027	Laboratoriya boshlig'i (mudiri) (o'rinbosari)
9.	13211028	Usta (Ishlab chiqarish sanoatida usta)
10.	13212008	Bosh energetik
11.	13220005	Bosh geofizik
12.	13220007	Bosh geolog
13.	13220016	Bosh texnolog
14.	13220021	Ekspeditsiya (geologik, geologorazvedka, qidiruv, konchilik, topografo-geodezik va boshqalar) boshlig'i
15.	13220024	Geotexnologik uchastka boshlig'i
16.	13220027	Ishlab chiqarish boshlig'i (konchilik, qazib olish sanoatida)
17.	13220027	Ishlab chiqarish boshlig'i (konchilik, qazib olish sanoatida)
18.	13220031	Kon boshlig'i
19.	13220032	Konchilik sanoati ustalari
20.	13220033	Konchilik, qazib olish sanoatida (xizmat, guruh, sho'ba, sex, stansiya, punkt, uchastka, smena, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
21.	13220034	Konchilik, qazib olish sanoatida bosh muhandis
22.	13220035	Konchilik, qazib olish sanoatida boshqarma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
23.	13220036	Konchilik, qazib olish sanoatida departament direktori (boshlig'i)
24.	13220037	Maydon (astronomik, asbobsozlik, konteyner, sport va boshqalar) mudiri
25.	13220040	Neft bazasi boshlig'i
26.	13220041	Neft mahsulotlarini yuklash-tushirish sexi boshlig'i
27.	13220045	Neft va gazni tayyorlash qurilmasi boshlig'i
28.	13220052	Qurilma (burg'ilash, gaz-benzin, kislorod, to'yintirish, regeneratsion va boshqalar) boshlig'i
29.	13220053	Razvedka (neftgaz, konchilik) boshlig'i
30.	13490004	Bo'lim (bo'linma) boshlig'i (mudiri)
31.	13490004	Post (temir yo'l, bojxona va boshqa) boshlig'i
32.	13490008	Bosh muhandis
33.	13490033	Qism boshlig'i (boshqa sohalarga ixtisoslashgan)

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
34.	14390015	Harbiylashtirilgan qism bosh muhandisi
35.	21141001	Geolog
36.	21141006	Geolog-muhandis
37.	21141010	Konlarni o'zlashtirish bo'yicha geology
38.	21141012	Neft va gaz konlarini o'zlashtirish bo'yicha geology
39.	21141013	Burg'ilash ishlari geologi
40.	21141013	Neft-gaz qidiruv partiyasida burg'ilash geologi
41.	21141013	Neft-gaz qidiruv partiyasida burg'ilash geologi
42.	21411001	Ekspert
43.	21411001	Ishlab chiqarishda texnik masalalar bo'yicha professional-mutaxassis (Ekspert)
44.	21411002	Ishlab chiqarishni nazorat qilish sohasida muhandis (koordinatort)
45.	21411004	Muhandis-texnolog (texnolog)
46.	21413004	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan tizim orqali boshqarish muhandisi (ishlab chiqarish jarayonlari)
47.	21413004	Ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bo'yicha muhandis
48.	21419004	Sanoat va ishlab chiqarish sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
49.	21441005	Muhandis
50.	21449013	Burg'ilash va tog'-kon ishlari bo'yicha muhandis-mexanik
51.	21459003	Korroziya guruhi kimyo muhandisi
52.	21461001	Burg'ilash-portlatish ishlari bo'yicha muhandis
53.	21461004	Geofizik muhandis
54.	21464004	Neft va gaz qazib olish muhandisi
55.	31119001	Laborant
56.	31119004	Texnik-laborant (umumiy yo'nalish)
57.	31145006	Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha texnik
58.	31145010	Texnologik nazorat-o'lchov uskunlari bo'yicha texnik
59.	31151006	Ishlab chiqarish mexanigi
60.	31151007	Jihozlardan foydalanish va ta'mirlash bo'yicha texnik
61.	31151008	Jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha texnik
62.	31151017	Texnik-texnolog
63.	31152003	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik
64.	31153007	Sanoat uskunlari bo'yicha mexanik
65.	31171008	Yer ostki uchastka mexanigi
66.	31172004	Geologik namunalar laboranti
67.	31172009	Texnik-geofizik
68.	31172010	Texnik-geolog
69.	31172016	Xom neft laboranti
70.	31175001	Gaz obyektlari jihozlari ekspluatatsiya qilish bo'yicha texnik
71.	31175004	Neft va gaz qazib olish bo'yicha texnik
72.	31175005	Neft va gaz quduqlari texnigi
73.	31175010	Yoqilg'i-moylash materiallari hisobini yuritish bo'yicha texnik
74.	31179001	Burg'ilash qurilmasi mexanigi
75.	31179002	Burg'ilash texnigi

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
76.	31179007	Quduqlar tadqiqoti bo'yicha texnik
77.	31211002	Burg'ilash ustasi yordamchisi
78.	31322005	Suvni kimyoviy tozalash apparatchisi
79.	52450001	Avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyasi (AGNKS) operatori
80.	52450002	Avtomobillarga gaz to'ldirish stansiyasi (AGZS) operatori
81.	52450003	Yoqilg'i quyish shoxobchasi operatori
82.	52450004	Yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari quyish operatori
83.	54190001	Harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi jangchisi
84.	54190014	Starshina
85.	71140016	Sementlash agregati mashinisti
86.	71240005	Izoyatsiylovchi
87.	71240013	Liniyadagi quvur izolyatsiylovchisi
88.	71261003	Gaz uskunolari va quvurlarini ta'mirlovchi hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi ishchi
89.	71261004	Gaz uskunalarini ekspluatatsiya qiluvchi va ta'mirlovchi chilangar
90.	71261005	Gaz xo'jaligida avariya-tiklash ishlari chilangari
91.	71310004	Bo'yoqchi
92.	72149001	Asbobsoz
93.	72220003	Chilangar-asbobsoz
94.	72220008	Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha chilangar
95.	72333035	Texnologik qurilmalarni ta'mirlovchi chilangar
96.	72336002	Burg'ilash qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi chilangar
97.	72336002	Burg'ilash qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi chilangar
98.	72339006	Chilangar-ta'mirlovchi
99.	72339007	Defektoskopchi
100.	72339022	Rentgen-gamma-grafirlash defektoskopchisi
101.	74121007	Yer osti magistral neft va suv quvurlarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha elektromontyor
102.	74129055	Neft bazasi jihozlarini ta'mirlash bo'yicha elektrchilangar
103.	74212001	Avtomatik vositalar va texnologik qurilma asboblari bo'yicha elektromexanik
104.	75432010	Texnologik jarayon nazoratchisi
105.	75432010	Texnologik jarayon va mahsulot sifati nazoratchisi
106.	75490002	Ballonlarni to'ldiruvchi
107.	81115002	Burg'ilash qurilmasi mashinisti
108.	81115004	Karotajchi
109.	81115005	Ko'chma seysmik stansiya operatori
110.	81119012	Geologiya (geofizik) ishlari ishchisi
111.	81119028	Qurilma operatori
112.	81131001	Elektr burg'ilashda quduqlarni ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi yordamchisi
113.	81131002	Gaz va kondensat qazib olish (chiqarish) operatori
114.	81131004	Neft va gaz burg'ilash qurilmalari mashinisti
115.	81131005	Neft va gaz qazib olish operatori
116.	81131006	Neft va gaz qazib olishda boshqaruv pulti operatori

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
117.	81131007	Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi
118.	81131008	Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi yordamchisi
119.	81131008	Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi yordamchisi (ikkinchi)
120.	81131010	Quduqlarni kapital ta'mirlash burg'ilovchisi yordamchisi
121.	81131011	Quduqlarni kapital va yerosti ta'mirlashga tayyorlash bo'yicha operator
122.	81131012	Quduqlarni yer ostida kapital va ta'mirlash burg'ilovchisi (yordamchisi)
123.	81131013	Quduqlarni yerosti ta'mirlash bo'yicha operator
124.	81132002	Burg'ilash qurilmasi mashinisti yordamchisi
125.	81132003	Burg'ilash qurilmasi motoristi
126.	81139001	Burg'ilash eritmalari va maxsus suyuqliklar kimyoviy tahlili laboranti
127.	81139002	Burg'ilash eritmasini tayyorlovchi
128.	81139007	Ishlanayotgan materialni plastga haydash nasos stansiyasi mashinisti
129.	81139009	Sovutish qurilmasi mashinisti
130.	81139009	Ko'chma kompressor mashinisti
131.	81139012	Korotaj stansiyasi (quduqni sinash) ko'targichi mashinisti
132.	81139015	Qatlam bosimini tutib turish bo'yicha operator
133.	81139017	Quduq tadqiqoti operatori
134.	81139023	Sement qum qorishtirish agregati motoristi
135.	81139025	Sementlovchi agregat motoristi
136.	81139029	Yuvish agregati mashinisti
137.	81222002	Antikorroziyachi
138.	81312015	Koagulyatsiya apparatchisi
139.	81312027	Bug'lash va qumoqlash apparatchisi
140.	81313016	Apparatchi
141.	81313020	Kondensatni yig'ish va tozalash bo'yicha operator
142.	81319050	Chang va gazlar tahlili laboranti
143.	81319099	Fiksatsiya (filtrlash) apparatchisi
144.	81319116	Gaz taqsimlash stansiyasi operatori
145.	81319142	Ishlatilgan moy regeneratchisi
146.	81319142	Ishlov berilgan moy regeneratchisi
147.	81319170	Kimyoviy eritmalar tayyorlash apparatchisi
148.	81319222	Magistral gaz quvurlari operatori
149.	81319255	Neft haydash stansiyasi operatori
150.	81319256	Neft taqsimlash omborlari jihozlari mashinisti
151.	81319257	Neft va neft mahsulotlari nazoratchisi
152.	81319470	Texnologik kompressor mashinisti
153.	81319471	Texnologik nasoslar mashinisti
154.	81319472	Texnologik qurilmalar operatori
155.	81319488	Tovar operatori

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
156.	81541005	Xlorlash apparatchisi
157.	81829015	Havoni ajratish apparatchisi
158.	81829020	Kompressor stansiyasi mashinisti
159.	89431006	Ko'targich (qurilish yuk-yo'lovchi, ko'chma havozalet, skip, temir yo'l) mashinisti
160.	96231003	Gaz xo'jaligini nazoratchisi
161.	13211	Xizmat boshlig'i, rahbari (sanoatda)
162.	13211	Guruh rahbari (sanoatda)
163.	13211	Loyiha rahbari
164.	13211	Ishlab chiqarish sanoatida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
165.	13220	Neftgeologiyaqidiruv ekspeditsiyasi boshlig'i
166.	13490	Harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi komandiri (o'rinbosari)
167.	13490	Harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi vzvod (otryad, bo'linma) komandiri
168.	21419	Dispetcher
169.	21419	Neft qazib olish bo'yicha dispetcher
170.	21440	Konchilik qurilmalari va mashinalari bo'yicha muhandis- mexanik
171.	21441	Muhandis-loyihachi
172.	21452	Loyiha menejeri
173.	21452	Bosh mutaxassis
174.	21461	Mutaxassis
175.	21461	Texnolog
176.	21464	Supervayzer
177.	31159	Harbiylashtirilgan gazdan qutqaruv otryadi mexanigi
178.	31171	Texnik
179.	31171	Texnik-hisobchi
180.	31539	Neft qazib olish (qayta ishlash) bo'yicha dispetcher
181.	71329	Qum purkovchi
182.	74129	Yer osti quvurlarni korroziyadan saqlash montyori
183.	81131	Quduqni deparafinlash agregati mashinisti
184.	81319	Nasos qurilmalari mashinisti

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot.

T/r	Kasbiy standartlar soni ⁶	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1	4	22	2025 – yil, dekabr
2	11	44	2026 – yil, dekabr

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi 345-son "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 6-ilovasidagi 2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish reja-jadvaliga muvofiq, Energetika sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli bo'lgan 40 ta kasbiy standartning qolgan qismi "Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash" sohasi qamrab oladi.

6.Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi.

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi	Tarmoq malaka ramkasi				
1	1	Ish joyidagi umumiy qoidalar, mehnat intizomi, xavfsizlik belgilari va ogohlantirishlarining ma'nosi, oddiy ish jarayonlari hamda neft-gaz sohasida qo'llaniladigan boshlang'ich asbob-uskunalar bilan tanishishga oid boshlang'ich bilimlar	Tajribali mutaxassis (usta/rahbar) nazorati ostida eng oddiy yordamchi ishlarni bajarish; ish joyini tayyorlash va yig'ishtirish; asbob-uskunalarni olib kelish va joylashtirish; xavfsizlik talablariga rioya qilish	O'z harakatlarini to'liq nazorat ostida bajarish; barcha ishlarni bevosita ko'rsatma asosida amalga oshirish; xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish uchun shaxsiy javobgarlik	35.22 Gaz bilan ta'minlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash 96231002 Elektr, gaz va suv hisoblagichlari nazoratchisi 96231003 Gaz ta'minoti nazoratchisi
2	2	Neft va gaz sohasidagi kasbiy faoliyatning muayyan turida asosiy bilimlarni amalda qo'llash. Yo'riqnoma, reglamentga aniq mos keladigan usullar va vositalarning cheklangan to'plami. Oddiy texnologik (ishchi) yo'riqnomalar va texnologik xaritalarni (chizmalar,	Belgilangan ishlab chiqarish topshirig'i doirasida oddiy amaliy ko'nikmalarni (odatda jismoniy mehnat, neft-gaz sohasidagi kasbiy faoliyatning ayrim turlarida bevosita ishlab chiqarish quroliga elementar ta'sirlarni bajarish) qo'llashni talab qiladigan qat'iy tartibga solingan bir xil, doimiy takrorlanadigan	Oddiy topshiriqlarni bajarishda individual mas'uliyat. Neft va gaz majmuasi kasbiy faoliyatining muayyan turida faqat oddiy, oldindan aytib bo'ladigan va barqaror vaziyatlarda mustaqillikni namoyon etgan holda yuqori malakali ishchining tezkor (bevosita)	06.10 - Xom neft qazib olish / 06.20 - Tabiiy gaz qazib olish 72220008 nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha chilangar 81319 nasos qurilmalari mashinisti 81119012 geofizik ishlari ishchisi 81139002 burg'ilash eritmasini tayyorlovchi 81313020 kondensatni yig'ish va tozalash bo'yicha operator 09.10 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar

		sxemalar, texnik shartlar, maxsus jadvallar, yo'nalish varaqalari, qaydnomalar va shu kabilarni) qo'llash.	operatsiyalarni (ishlarni) bajarish. Texnologik (ishchi) yo'riqnomalarga muvofiq o'z harakatlarini bajarish shartlarini hisobga olgan holda tuzatish.	rahbarligi ostida ishlarni bajarish.	19.20 Neftni qayta ishlash mahsulotlari va yoqilg'i-energetika foydali qazilmalarini ishlab chiqarish 81319257 Neft va neft mahsulotlari nazoratchisi 81319258 Neft-gaz tozalash qurilmalari operatori 81890004 Biogaz qurilmalari operatori 81890017 Gaz qurilmalari operatori 81890021 Gazni dastlabki tayyorlov qurilmasi operatori 35.21 Gaz ishlab chiqarish 35.22 Gaz bilan ta'minlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash 35.23 Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish 35.24 Gaz ta'minoti tizimlari doirasida gazni saqlash 31340001 Gaz tarmoqlarini nazorat qiluvchi chilangar 74129009 Avtomatlashgan gaz himoyasi operatori 75490008 Neft mahsulotlarini tarqatuvchi 81319050 Chang va gazlar tahlili laboranti 81319115 Gaz pechlari operatori 81319121 Gazogenerator stansiyasi mashinisti 81319143 Ishlatilgan neft mahsulotlarini yig'ish bo'yicha operator 81319222 Magistral gaz quvurlari operatori 49.50 Quvurlar orqali yuk tashish
--	--	---	---	---	---

					81319142 ishlov berilgan moy regeneratchisi 81319471 texnologik nasoslar mashinisti 81139009 sovutish qurilmalari mashinisti 81319488 tovar operatori 75490002 ballon to'ldiruvchi 52450003 yoqilg'i quyish shoxobchalari operatori 09.10 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar 31119001 gaz va chang tahlili bo'yicha laborant
3	3	Namunaviy amaliy masalalarni yechishning texnologik yoki uslubiy asoslarini tushunish. Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy tushunchalarning cheklangan to'plamini qo'llash. Texnologik operatsiyalar va ularni rejalashtirish va bajarish usullari, foydalaniladigan mehnat qurollari (asboblari, moslamalar, priborlar, mashinalar, dastgohlar, uskunalari	Namunaviy amaliy masalalarni yechish. Belgilangan ishlab chiqarish topshiriqlari doirasida reglamentlangan bir turdagi va har xil turdagi muntazam va nomuntazam takrorlanadigan operatsiyalarni (ishlarni) bajarish. Bilim va amaliy tajriba asosida harakat usulini tanlash. Reglament talablariga (texnologik xaritalar, limit-zabor xaritalari, sanoat, yong'in xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va shu kabilari bo'yicha yo'riqnomalar) muvofiq	Standart vaziyatlarda mehnat topshiriqlarini bajarish uchun individual javobgarlik. O'z harakatlari xavfsizligini ta'minlashda o'z-o'zini nazorat qilish. Yuqori malaka darajasiga ega bo'lgan ishchining umumiy rahbarligi ostida ishlarni bajarish, faqat yaxshi ma'lum bo'lgan yoki ularga o'xshash vazifalarni hal qilishda mustaqillikni namoyon qilish. Belgilangan mehnat topshiriqlaridan kelib	06.10 Xom neft qazib olish / 06.20 Tabiiy gaz qazib olish 81313020 kondensatni yig'ish va tozalash bo'yicha operator 81319142 ishlov berilgan moy regeneratchisi 81319471 texnologik nasoslar mashinisti 81139009 sovutish qurilmalari mashinisti 81319488 tovar operatori 75490002 ballon to'ldiruvchi 52450003 yoqilg'i quyish shoxobchalari operatori 31119001 gaz va chang tahlili bo'yicha laborant 72336002 Burg'ilash qurilmalariga xizmat ko'rsatuvchi chilangar 81131004 Neft va gaz burg'ilash qurilmalari mashinisti

	va shu kabilar), mehnat predmetlari (xomashyo, materiallar, zagotovkalar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar va shu kabilar) tavsiflari va vazifasi, shuningdek neft-gaz tarmog'ining muayyan turdagi kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy atamalar bo'yicha asosiy bilimlar. O'rtacha murakkablikdagi texnologik (ishchi) yo'riqnomalar va texnologik xaritalarni (chizmalar, sxemalar, texnik shartlar, maxsus jadvallar, yo'nalish varaqalari, qaydnomalar va h.k.) qo'llash.	ularni bajarish shartlarini hisobga olgan holda harakatlarga tuzatishlar kiritish. O'z faoliyati natijalarini operatsiyalar bo'yicha nazorat qilish. Mashinalar, mexanizmlar, uskunalar ishining texnologik parametrlarini barqaror vaziyatlarda rostlash.	chiqqan holda o'z faoliyatini rejalashtirish.	81131008 neft va gaz quduqlarini ekspluatatsion va qidiruv burg'ilash burg'ilovchisining yordamchisi 81119028 suvsizlantiruvchi va tuzsizlantiruvchi qurilma operatori 81139015 qatlam bosimini tutib turish bo'yicha operator 81131 ko'chma bug'li deparafinlash qurilmasi mashinisti 81131 ko'chma bug'li deparafinlash qurilmasi mashinisti 81139017 quduq tadqiqoti operatori 72339006 chilangar-ta'mirlovchi 72339 neft konlari uskunalarini ta'mirlovchi chilangar 81139007 qatlamga ishchi agentni haydash nasos stansiyasi mashinisti 81131011 quduqlarni kapital va yer osti ta'mirlashga tayyorlash bo'yicha operator 81131006 neft va gaz qazib olishda boshqarish pulti operatori 81139001 burg'ilash eritmalari va maxsus suyuqliklar kimyoviy tahlili laboranti 81132002 burg'ilash qurilmasi mashinisti yordamchisi 81132003 burg'ilash qurilmasi motoristi 81115002 burg'ilash qurilmasi mashinisti 81319258 neft-gaz tozalash qurilmalari operatori 81312027 qumoqlash apparatchisi
--	---	---	--	---

					09.10.0 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar 72339007 defektoskopchi 72339022 Rentgen-gamma-grafirlash defektoskopchisi 72339007 buzmasdan nazorat qilish defektoskopi 71329 Qum purkovchi 71240013 liniyadagi quvurni izolyatsiyalovchi 72220008 Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha chilangar 72220003 Asbobsoz 74212001 Avtomatik vositalar va texnologik qurilma asboblari bo'yicha elektromexanik 72333035 texnologik qurilmalarni ta'mirlovchi chilangar 72339006 chilangar-ta'mirlovchi 72333035 texnologik qurilmalar chilangari 72333 texnologik qurilmalar jihozlarini ta'mirlash bo'yicha chilangar 81319050 chang va gazlar tahlili laboranti 54190001 harbiylashtirilgan gaz-qutqaruv otryadining jangchisi, II toifa 74129055 Neft bazalari jihozlarini ta'mirlash bo'yicha elektr-chilangar 75439003 Gaz ta'minoti tashkiloti nazoratchisi 75490009 Neft quyiladigan idishlarni tekshiruvchi
--	--	--	--	--	--

					81131001 Elektr burg'ilashda quduqlarni ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi yordamchisi 81131003 Neft qatlamlariga bug'ni haydash parogenerator (bug'li ko'chma parafinsizlash) qurilmasi mashinisti 81131007 Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi 81131008 Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya va qidiruv maqsadlarida burg'ilash burg'ilovchisi yordamchisi 81131010 Quduqlarni kapital ta'mirlash burg'ilovchisi yordamchisi 81131014 Quduqni deparafinlash agregati mashinisti 81139004 Gaz yig'ish operatori 81139010 Kompessor stansiyasi (avtogazto'ldirish) mashinisti 81219029 Gazchi 81319113 Gaz ajratish apparatchisi 81319114 Gaz operatori 81319116 Gaz taqsimlash stansiyasi operatori 81319117 Gaz tarqatish stansiyasi mashinisti 81319120 Gazni kompleks tayyorlov qurilmasi operatori 81319122 Gazogeneratorchi 81319123 Gazogeneratorlarda parametrlarni o'lchovchi
--	--	--	--	--	--

